

**SO‘FI OLLOYORNING BOLA TARBIYASI VA PEDAGOGIKAGA
OID QARASHLARI ZAMONAVIY QARASHLAR BILAN QIYOSIY
TAHLILI.**

Kotibov Rustamxon Bositxon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 17-asrlarda yashab o‘tgan mashhur o‘zbek shoir, faylasuf va pedagogi So‘fi Olloyorning bola tarbiyasi va pedagogikaga oid qarashlari zamonaviy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: So‘fi Olloyor, pedagogik qarashlar, qiyosiy tahlil, So‘fi Olloyor asarlari, “Sabot ul-ojizin”.

KIRISH

So‘fi Olloyorning pedagogik qarashlari uning falsafasidan kelib chiqqan bo‘lib, u asosan tanqidga, ratsionalaizmga, imperativ (amaliy) axloqqa, agnostitsizmga, skeptitsizm (har bir ilmiy nazariyalarga shubha bilan qarash)ga asolangandir.

Tarixiy davrlar bilan birga odamlar ham o‘zgarib boradi. Ya’ni ularning fiziologiyasidan tortib to tafakkur tarzi va dunyoqarashigacha. Insoniyat tafakkur tarzini o‘zgarishida ta’lim sohasining o‘rni beqiyosdir. Hozirda mamlakatimizda ham bu borada qator islohotlar olib borilmoqda. Shu bois pedagogika sohasi tarixi va mashhur pedagoglar faoliyatini o‘rganib borish davr talabidir. Ana shu maqsadni amalga oshirish maqsadida mazkur maqolada 17 - asrning mashhur o‘zbek faylasufi, olimi va pedagogi So‘fi Olloyorning bola tarbiyasi hamda pedagogika borasidagi fikrlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan qiyosiy tadbiq etiladi.

“Sabot ul-ojizin” asarida so‘fiylikning ayrim jihatlari, umuminsoniy qadriyatlar hamda odob -axloq masalalari badiiy talqin etilgan. Asar kompozitsiyasi Alisher Navoiyning “Hayrat ul -abror” asarini esga soladi.



Ma'lumki, "Hayrat ul-abror" dostoni yigirma maqolatdan iborat bo'lib, har bir maqolatdan so'ng uni asoslaydigan bir hikoyat keltirilgan. Hikoyatlarning asosiy qahramonlari mashhur tarixiy shaxslar, podshohlar, so'fiylar bo'lgan. Shoir bu hikoyatlar uchun ma'lum bir manbalarni asos qilib olgan. Bu hikoyatlarning genezisi-tasavvufiy manbalarga, bir qator tarixiy asarlarga borib taqalgan. So'fi Olloyor ham o'z asarini yaratishda mazkur an'anaga amal qilganligi yaqqol sezilib turadi. Ya'ni "Sabot ul-ujizin" asarida ham ma'lum bir masalalarga bag'ishlangan boblardan so'ng shu masalani quvvatlaydigan hikoyat keltiriladi. O'z navbatida ushbu hikoyatlar ham ma'lum bir manbalarga borib taqaladi."Sabot ul-ujizin" asari tarkibidagi hikoyatlar tarkibi ham shu taqlid keltirilgan. Jumladan,«Tama'din qochmoq bayoni», bilan birgalikda uni dalillovchi "Hikoyati Savbon", «Muhabbatsiz kishidin qochmoq bayoni» bilan "Hikoyati dev alayhil la'na", «Shayxi komil istamak va shariatga iyarmakni bayoni» bilan "Hikoyati shayx Imom Basriy", «Takabburlik qilmay, ta'vozulik ixtiyor qilmoq bayonida» bilan "Hikoyati Azizi", «Tavakkul bayoni» bilan "Hikoyati Abdulloh ibni Muborak", «Ko'zni haromdin yummoq bayoni» bilan "Hikoyati shayx Bistomiy" kabi ko'plab misollar kitobda talaygina.

So'fi Olloyorning asarlarida shunday qarashlar borki, ta'lim deganda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutgan va uni jismoniy kuchlar hamda aqliy qobiliyatlar rivoji va tartib intizom shakllanishini o'z ichiga oladigan tabiiy tarbiyaga taalluqli deb hisoblagan. Maorif esa odob-axloqni shakllantirishga oid bo'lib, maktab ta'limi yoki o'qitish (mahorat hosil kilish) va pragmatik tarbiya (aql farosatlilikka erishish)dan farqli o'larok, amaliy tarbiyaga taalluqlidir. Mana shu joyda alohida ta'kidlash lozimki amaliy tarbiya (amaliy axloq) masalasi sharqda ham bir qator mutafakkirlar tomonidan ham muammo sifatida ko'tarilgan.

So'fi Olloyorning "Sabot ul-ujizin" asarida ta'lim-tarbiya to'g'risida shunday fikrlar aytib o'tgan: ta'limning asosiy vazifalari - ijtimoiy tartibintizom tarbiyasi, ko'nikmalar hosil qilish , madaniyatga erishtirish, ma'naviyaxloqiy tarbiyadir.

“Sabot ul-ujizin” asarini o’qir ekanmiz, sof islomiy e’tiqod, komil inson axloqi, ilohiy muhabbat, yoshlar tarbiyasi kabi mavzularga duch kelamiz. Unda Allohning ma’rifati, tavhidi, sifatleri, iymon, farishtalar, qabr azobi, qiyomat kuni, Payg‘ambar shafobati, umrning foniyligi haqida xabar beradi. Asar muqaddimasida qayd qilinishicha, muallifning muxlis va do’stu yaqinlari turkiy tilda kitob yozishini iltimos qiladi:

Bitilsa turkiy til birla aqiyda,
Ko’ngullar bo’lsa andin oramiyda.
Tamalluq qildilar chun bir necha yor,
Qalam tortay Xudo bo’lsin madadkor.

Bunga javoban fors tilida yozilgan “Maslak ul-muttaqin” asarini bir muncha qisqartirib, “Sabot ul-ujizin” deb ataydi:

Aqiyda so’zlaridin qildim isbot,
Anga qo’y dum Sabot ul-ujizin ot.

“Sabot ul-ujizin” 300 yildan ko’proq vaqt mobaynida maktab va madrasalarda asosiy darslik, qo’llanma bo’lgan. Matbaa paydo bo’lgach Qozon, Boku, Toshkent, Xivada qayta-qayta bosilib chiqqan. Asarga bo’lgan qiziqish tufayli ko’plab sharhlar yozilgan. Jumladan, Tojuddin Yolchiqul “Risolai Aziza”, Sayyid Habibulloh Yahyoxon “Hidoyat ut-tolibin”, Rashid Zohid “Ravoyihur Rayhon”.

So’fi Olloyor ta’limoti asosida o’z aql-idrokidan foydalanadigan inson mujassamdir. Ya’ni, so’rab-surishtiradigan, tanqidiy ko’z bilan qaraydigan, fikr-mulohazalari nainki o’zi, balki butun jamiyat uchun xam yaray oladigan ma’naviy qadriyatlar asosida tarkib topgan bilimli, o’kimishli, ma’rifatli inson. Shuning uchun ham So’fi Olloyor pedagogikasining negizini ana shunday insonni tarbiyalash masalasi tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Xaytmetov, R. (2020). Dunyoqarash dialektikasi. Falsafa va huquq, 1, 81-85.

2. Rahmonqul Orzibekov. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

3. So'fi Olloyor. Risolai aziza “Sabot ul-ojizin sharhi” (Tuzuvchi: B.Hasan) – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashr, 2000

4. So'fi Olloyor SABOTUL-OJIZIN Nashrga tayyorlovchi Rashid Zohid. 2018.

5. Sofi Olloyor ilohiyoti.Jamiyat va burch (Theology of Sufi Allayar: Society and duty. 1-volume).Tashkent,2001